

Date: 27th April-2026

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Omarova Sevara Rozamatovna

O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 20-umum ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi



“Biz farzandlarimizni nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar insonlar etib tarbiyalashimiz zarur.”

Shavkat Mirziyoyev Miromonovich

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlari, balki ularning ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish ham ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, emotsional intellekt (EI) tushunchasi so'nggi yillarda pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilmoqda.

Daniel Goleman ta'kidlaganidek, inson muvaffaqiyatining muhim qismi aynan emotsional intellekt darajasi bilan belgilanadi. Uning fikricha, EI insonning o'z hissiyotlarini boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa bola shaxsining shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Shu sababli aynan shu davrda emotsional intellektni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi.

Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari

Emotsional intellekt tushunchasi ilk bor Peter Salovey va John D. Mayer tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ular EI ni quyidagi komponentlarga ajratadi:

Emotsiyalarni aniqlash.

Emotsiyalarni tushunish.

Emotsiyalarni boshqarish.

Date: 27th April-2026

Emotsiyalardan samarali foydalanish.

Bola rivoji ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida shakllanadi. Bu esa emotsional rivojlanishning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Boshlang'ich sinflarda emotsional intellektni rivojlantirish metodlari, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida EI ni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

a) Rolli o'yinlar va dramalizatsiya. Bolalar o'yin orqali ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi. Rolli o'yinlar orqali ular boshqalarning hissiyotlarini tushunishni o'rganadilar.

b) Refleksiya va "hissiyotlar kundaligi"

Bu usul o'quvchilarning o'z his-tuyg'ularini anglashiga yordam beradi.

Guruhli ishlash o'quvchilarda empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

d) Ijobiy psixologik muhit yaratish.

O'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi munosabati o'quvchilarning emotsional xavfsizligini ta'minlaydi. Ularga ko'proq motivatsiya ya'ni ruhlantiruvchi omillar kerak.

Emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini yaxshilash uchun

Quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

O'qituvchining kompetensiyasi – EI ni rivojlantirish metodlarini bilishi.

Individual yondashuv – har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Ota-onalar bilan hamkorlik – oilaviy muhitning ta'siri katta.

Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish – innovatsion metodlar samaradorlikni oshiradi.

UNESCO hisobotlariga ko'ra, ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) o'quvchilarning akademik natijalarini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Ko'plab xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

EI rivojlangan o'quvchilar konfliktlarni kamroq yuzaga keltiradi

Ularning akademik ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi

Stressga chidamlilik darajasi oshadi

Masalan, Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda SEL dasturlarini qo'llash o'quvchilarning muvaffaqiyatini 10–15% ga oshirishi aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlar va nazariyalar shuni ko'rsatadiki, EI nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki akademik muvaffaqiyat uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Shu bois ta'lim jarayonida emotsional-intellektual rivojlanishga e'tibor qaratish, innovatsion metodlardan foydalanish va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Kelajakda emotsional intellekti rivojlangan avlod jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

